



JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>



SOME REFLECTIONS ON THE HISTORY OF CRAFTS IN UZBEKISTAN AND THEIR MODERN DEVELOPMENT

Maftuna Dusiyorova

Master's student

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: dusiyorovamaftuna@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: Craft, applied art, museum, copper, painting, ceramics, blacksmithing, chamber of commerce.

Received: 16.12.24

Accepted: 18.12.24

Published: 20.12.24

Abstract: The article examines the history of crafts in Uzbekistan based on extensive literature. Special attention is paid to copper, the art of painting, ceramics, blacksmithing and other types of art. The article tells about experienced craftsmen who grew up in the late XVIII - XIX centuries in Kokand, Ferghana, Bukhara. It was analyzed that over the years of independence, opportunities have been created for the restoration and development of national values, holding international competitions, festivals and a wide path to the prosperity of crafts according to the system "Ustoz-shogird" ("Master-disciple").

O'ZBEKISTONDA HUNARMANDCHILIK TARIXI VA BUGUNGI KUNDAGI RIVOJI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Maftuna Dusiyorova

Magistratura talabasi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: dusiyorovamaftuna@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalir so'zlar: Hunarmandchilik, amaliy san'at, muzey, misgarlik, naqqoshlik, ganchkorlik, chilangarlik, savdo-sanoat palatasi.

Annotatsiya: Maqolada keng adabiyotlar asosida O'zbekistonda hunarmandchilik tarixi o'rganilgan. Misgarlik, naqqoshlik, ganchkorlik, chilangarlik va boshqa san'at turlariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada XVIII asr oxiri - XIX asrlarda Qo'qonda, Farg'onada, Buxoroda yetishib chiqqan yetuk ustalar haqida so'z boradi. Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarini tiklash va rivojlantirish yo'lida yaratilgan imkoniyatlar,

halqaro konkurs, festival va “Ustoz-shogird” tizimi samarasida hunarmandlik ravnaqiga keng yo‘l ochilganligi tahlil etilgan.

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ ИСТОРИИ РЕМЕСЕЛ В УЗБЕКИСТАНЕ И ИХ СОВРЕМЕННОМ РАЗВИТИИ

Мафтуна Дусиёрова

студент магистратуры

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

E-mail: dusiyorovamaftuna@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ремесло, прикладное искусство, музей, медное дело, искусство живописи, керамика, кузнечное дело, торгово-промышленная палата.

Аннотация: В статье исследуется история ремесел в Узбекистане на основе обширной литературы. Особое внимание уделяется медному делу, искусству живописи, керамике, кузнечному делу и другим видам искусства. В статье рассказывается об опытных мастерах, выросших в конце XVIII - XIX веках в Коканде, Фергане, Бухаре. Было проанализировано, что за годы независимости были созданы возможности для восстановления и развития национальных ценностей, проведения международных конкурсов, фестивалей и широкого пути к процветанию ремесла по системе “Устоз-шогирд” (“Мастер-ученик”).

Hunarmandchilik O‘rta Osiyo hududlarida uzoq davrlar davomida rivojlanib keldi. Hunarmandchilik tarixi e‘tiborga molik. O‘zbek xalq amaliy san‘ati qadimiyligi hamda boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir, Uning yer usti va tuproq ostidagi qismi ulkan bir tarixiy muzey hisoblanadi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Farg‘ona va boshqa shaharolardagi har bir tarixiy obida, xar bir xalq amaliy bezak san‘ati na‘munasi avlodlarimiz yaratgan mukammal, san‘at asarlaridir va ular jahon madaniyatining durdonalaridan bo‘lgan badiiy va ma‘naviy merosni tashkil etadi.

XVIII asr oxiri - XIX asrlarda Qo‘qonda, Farg‘onada, Buxoroda yetuk ustalar yetishib chiqdi. Misgarlik, naqqoshlik, ganchkorlik, chilangarlik va boshqa san‘at turlari rivojlandi [1:139]. Masalan mis – qadim zamonlardan insonga ma‘lum metall hisoblanib, moddiy madaniyat o‘shida katta ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. VIII - XIII asrlarda qimmatbaho metalladn qilingan idishlar mislom dini dunyosining ko‘pgina hududlarida urf bo‘lib qolgan [2:1283]. XIX asr oxirlariga kelib Qo‘qon shahrida ham yog‘och o‘ymakorlik maktabiga asos solingan. “Haydar farang” nomi bilan tanilgan Haydarali Najmiddinov 1890 yillardan boshlab mustaqil ravishda o‘yna naqshli eshik, sharafa, muqarnas, badiiy naqsh bezaklari berish bilan shuhrat qozongan. Usta tomonidan 1914 yilda

yaratilgan to‘rt qirrali xontaxtaning ustki qismida bir – biriga zid o‘yilgan “islmiy” naqshlar na‘munasi o‘z aksini topgan bo‘lib, bugungi kunda O‘zbekiston amaliy san‘at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyida saqlanib kelinmoqda[3:80].

Umuman, yog‘och o‘ymakorligining o‘z ustalari bo‘lib, usta Qodirjon Haydarov, ganchkor ustalar – Abdulla Boltaev, Usta Shirin Murodov, Toshpo‘lat Arslonqulov, marhum naqqosh ustalar – Tohir To‘xtaxo‘jaev, Jalil Xakimov kabilar o‘zbek xalq amaliy san‘atida salmoqli hissa qo‘shib kelgan usta nomida qoldilar.

Shu tariqa O‘rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan hunar muqaddas sanalib kelishi bilan yillar davomida Andijon, Samarqand viloyati Urgut tumani, Farg‘ona viloyatida Qo‘qon, Marg‘ilon shahri, Namangan viloyatida Chust hunarmandchilik markazlariga aylandi. Masalan, naqqoshlik san‘ati Farg‘ona vodiysida keng tarqaldi va Marg‘ilon, Qo‘qon, Farg‘ona, Namangan, Chust, Quva, Rishgton va Oltiariqda o‘ziga xos uslublar vujudga keldi.

Hunarmandlar o‘sha yillarda mahallalarga bo‘linib yashadi. Masalan, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda bo‘yrachilar mahallasi bo‘lib, u yerda umuman Buxorodagi barcha to‘quvchi ustalar – 120 ta oila yashagan. Har bir hunarda mahalladagi qo‘ni – qo‘shnilar o‘rtasida raqobati bo‘lgan [1:140].

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish yo‘lida yaratilgan imkoniyatlar samarasida hunarmandlik ravnaqiga keng yo‘l ochildi. Respublika “Hunarmand” uyushmasi, joylarda esa uning bo‘limlari tashkil etildi. Bir vaqtlar usta va hunarmandlar o‘zlari yaratgan buyumlarni sotish, namoyish etishda turli to‘siqlarga uchragan bo‘lsa, bugun har bir tuman va shaharda hunarmandlar markazlari faoliyat yuritmoqda, bozorlar va savdo majmualarida maxsus savdo rastalari tashkil etildi. Hunarmandlik avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan sulolalar faoliyati qo‘llab-quvvatlandi. “Ustoz-shogird” an‘anasi asosida yosh avlodga o‘rgatish yo‘lga qo‘yildi.

Ayni paytda aholini hunarmandchilikka jalb qilish tizimini takomillashtirish, «usta-shogird» an‘analari asosida mahallalarda yoshlarga hunar o‘rgatish va bandligini ta‘minlash, shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish hamda hunarmandchilikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab – quvvatlash chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5242-son Farmoni[4], 2021 yil 30 dekabr PQ-77-son “Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori[5] hamda 2023 yil 12 iyun PF-91-son “Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart – sharoitlar yaratish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi[6] va yana bir qator Farmonlari hunarmandlikni yanada rivojlantirishda muhim dasturimal bo‘lib xizmat qildi.

Jumladan, 2017 yil 17 noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab – quvvatlash chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5242-son Farmonida hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan fuqarolar va oilalar, ayniqsa, yangitdan o‘z faoliyatini boshlagan hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, «Usta-shogird» maktablari faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, va shu asosda yangi ish o‘rinlari tashkil etish, hunarmandlarga chilik sub’ektlariga davlat ro‘yxatidan o‘tishda ko‘maklashish, ularga yer maydonlari va binolar ajratish, ularni asbob-uskunalar, jihozlar, xomashyo va materiallar bilan uzluksiz ta‘minlash, ularga imtiyozli kreditlar berish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, xalq hunarmandchiligi va ijodiy an‘analari keng rivojlangan shahar va tumanlarda hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari tashkil etish, hunarmandchilikning noyob turlarini qayta tiklash va yanada rivojlantirish, iste‘molchilarga hunarmandchilik mahsulotlari yetkazib berish uchun bozor infratuzilmasini shakllantirish, hunarmandchilik mahsulotlarini eksport qilishni rag‘batlantirish, ko‘rgazma va yarmarkalarda milliy hunarmandchilik mahsulotlarini taqdimot qilishga ko‘maklashish muhim vazifa qilib berildi.

Hukumat tomonidan Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazish ishlari ham amalga oshirildi. Masalan, 2019 yildan boshlab ikki yilda bir marotaba Farg‘ona viloyatiining Qo‘qon shahrida xalqaro festival o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yildi. Festival Savdo-sanoat palatasi, «Hunarmand» uyushmasi va Farg‘ona viloyat hokimligi tomonidan tashkil etiladi. Festival doirasida «Hunarmandchilik va xalq amaliy san‘atini rivojlantirish istiqbollari» mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya, hunarmandlarning ko‘rik-tanlovi, shuningdek xorijiy va mahalliy hunarmandlarning mahorat darslari tashkil etildi.

Ishtirokchilarining mahsulotlari ko‘rgazmasi va mahorat darslari 5 ta nominatsiya bo‘yicha baholanadi. Festival doirasida o‘tkaziladigan ko‘rik-tanlov g‘oliblari diplom, haykalcha va quyidagi miqdorda pul mukofotlari bilan taqdirlandi. Ular «Eng yaxshi hunarmand», «Eng yaxshi hunarmandchilik maktabi ustasi», «Qadimiy sulola davomchisi», «Qadimiy hunarmandchilik turini tiklagan hunarmand» kabi nominatsiyalar bo‘yicha o‘tkazildi.

Hulosa o‘rnida shuni aytish joizki, O‘rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan hunar muqaddas sanalib kelgan va ko‘p yillar davomida Andijon, Samarqand viloyati Urgut tumani, Farg‘ona viloyatida Qo‘qon, Marg‘ilon shahri, Namangan viloyatida Chust hunarmandchilik markazlariga aylanib ulgurdi. Aholini hunarmandchilikka jalb qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha davlatimiz tomonidan ko‘plab huquqiy asoslar yaratildi. Misgarlik, naqqoshlik, ganchkorlik, chilangarlik va boshqa san‘at turlari yanada rivojlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Сайфуллаева Г., Рашидова Н., Эгамова Ф. Ўзбек халқининг амалий санъати тарихи ва халқ хунармандчилиги фанини ўқитишнинг асосий вазифалари // *Scientifik progress. Volime 2/ISSUE 7/ 2021. ISSN:2181-1601. P 139.*
2. Сидиқов Д. Халқ амалий санъатида мисгарлик санъатининг тутган ўрни // *Scientifik progress. Volime 2/ISSUE 7/ 2021. ISSN:2181-1601. P 1283.*
3. Юсупов И., Исраилова С., Ғафқурова К. Қўқон ёғоч ўймакорлигида узтоз ва шогирд анъаналари // “*Oriental Art and Cuiture*” *Scientific-Methodikal journal-Issue 6 / 2021. – p 80.*
4. <https://lex.uz/docs/5807559>. Мурожат қилинган сана 2023 йил 14 сентябр.
5. <https://lex.uz/docs/5807559?ONDATE=12.06.2023>. Мурожат қилинган сана 2023 йил 14 сентябр.
6. <https://lex.uz/docs/6490321>. Мурожат қилинган сана 2023 йил 14 сентябр.